

7/1-115-son

22 iyul 2024 yil.



“TASDIQLAYMAN”
Iqtisodiyot va moliya vaziri
o‘rinbosari

_____G. Raximova
2024-yil ____ - _____

Iqtisodiyot va moliya vazirligining O‘zbekiston Respublikasi “Manfaatlar to‘qnashuvi
to‘g‘risida”gi O‘RQ-931-sonli Qonunini amalga oshirish bo‘yicha
IDORAVIY DASTURI

No	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Muddat	Ijrochilar
Tashkiliy chora-tadbirlar				
1.	Mavjud ichki idoraviy hujjatlardagi belgilangan talablarni “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonunga (keyingi o‘rinlarda – Qonun) muvofiqlashtirish choralarini ko‘rish. Bunda, manfaatlar to‘qnashuvining oldini olishda o‘rnak bo‘layotgan xodimlarni rag‘batlantirish choralarini ko‘rish masalasini inobatga olish.	Mavjud ichki idoraviy hujjatlarni xatlovdan o‘tkazish.	2024-yil noyabr	S. Qo‘ychiyev F. Berdiyev

2.	Vazirlik axborot tizimlari, savdo platformalari va boshqa dasturiy ta'minotlar Qonun bilan belgilanayotgan talablarga muvofiqligini o'rganish hamda mavjud moliyaviy imkoniyatlar doirasida ularni takomillashtirish bo'yicha tashkiliy choralarni ko'rish.	1. Vazirlik axborot tizimlari, savdo platformalari va boshqa dasturiy ta'minotlar orqali xodimlar tomonidan manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha deklaratsiyalarni va xabarnomalarni yuborish imkoniyatini joriy etish. 2. Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ma'lumotlarni Raqamli texnologiyalar vazirligiga taqdim qilish.	2024-yil oktabr 2024-yil dekabr	F. Berdiyev N. Djurayev
3.	Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish va aniqlashda ishtirok etadigan xodimlarga ishonib topshirilgan yoxud ularga kasbiy, xizmat yoki mehnat majburiyatlarini bajarishi munosabati bilan ma'lum bo'lib qolgan shaxslarning shaxsga doir ma'lumotlarini oshkor etishga yo'l qo'yilmasligi yuzasidan mas'ul xodimlarni ogohlantirish ishlarini amalga oshirish.	Amaliy chora-tadbir	2024-yil sentabr	F. Berdiyev
Manfaatlar to'qnashuvi holatlarini tartibga solish chora-tadbirlari				
4.	Vazirlikda manfaatlar to'qnashuvining oldini olish bo'yicha qonunchilik hujjatlarida belgilangan cheklovlarga rioya etilayotganini o'rganish, bunday cheklovlarning samaradorligini tahlil qilish.	1. Vazirlik faoliyatiga oid qonunchilik va idoraviy hujjatlarda manfaatlar to'qnashuvining oldini olish bo'yicha qanday cheklovlar mavjudligini xatlovdan o'tkazish. 2. 2023-yil va 2024-yilning 1-yarim yilligi davomida ushbu cheklovlarga rioya qilinishi holatini o'rganish. 3. Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ma'lumotlarni Respublika idoralararo komissiyasiga taqdim qilish.	2024-yil iyul	F. Berdiyev S. Qo'ychiyev
5.	Yaqin qarindoshlar bevosita bo'ysunuvda yoki nazorat yo'nalishidagi tashkilotlarda	1. Xodimlarning vazirlik tizimida yaqin qarindoshlar bevosita bo'ysunuvda yoki	2024-yil iyul	F. Berdiyev S. Axmedov

	ishlayotgan holatlarni aniqlash hamda natijalarini Respublika idoralararo komissiyasiga taqdim qilish.	nazorat yo‘nalishidagi tashkilotlarda ishlayotgan holatlarni aniqlashga qaratilgan tahlillarni amalga oshirish. 2. Tayyorlangan ma’lumotlarni Respublika idoralararo komissiyasiga taqdim qilish.		
6.	Vazirlik hamda ularning bo‘ysunuvida bo‘lgan idoralarda xodimlar o‘rindoshlik asosida ishlayotgan holatlarni aniqlash hamda natijalarini Respublika idoralararo komissiyasiga taqdim qilish.	1. Vazirlik tizimi xodimlarining o‘rindoshlik asosida ishlayotgan holatlarni aniqlashga qaratilgan tahlillarni amalga oshirish. 2. Tayyorlangan ma’lumotlarni Respublika idoralararo komissiyasiga taqdim qilish.	2024-yil iyul	S. Axmedov F. Berdiyev
7.	Vazirlik hamda ularning bo‘ysunuvida bo‘lgan idoralarda ishdan bo‘shagan xodimning o‘z ish joyida bevosita nazoratida bo‘lgan tashkilotlarga ishga kirish holatlarini aniqlash hamda natijalarini Respublika idoralararo komissiyasiga taqdim qilish.	1. 2023-yil va 2024-yilning 1-yarim yilligi davomida bevosita o‘zi o‘z ish joyida bevosita nazoratida bo‘lgan tashkilotlarga ishga o‘tgan xodimlar ro‘yxatini shakllantirish. 2. Tayyorlangan ma’lumotlarni Respublika idoralararo komissiyasiga taqdim qilish.	2024-yil iyul	F. Berdiyev S. Axmedov
8.	Xodim o‘zi mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan davlat organi yoki boshqa tashkilotning nazoratida bo‘lgan tadbirkorlik faoliyati subyektining aksiyalariga yoki ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlariga egalik qilgan, shuningdek, ushbu tadbirkorlik faoliyati subyektlarining boshqaruv organi a‘zosi bo‘lgan holatlarni aniqlash hamda natijalarini Respublika idoralararo komissiyasiga taqdim qilish.	1. O‘zi mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan davlat organi yoki boshqa tashkilotning nazoratida bo‘lgan tadbirkorlik faoliyati subyektining aksiyalariga yoki ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlariga egalik qilayotgan xodimlar soni va ularning ro‘yxatini shakllantirish. 2. Tadbirkorlik faoliyati subyektlarining vazirlik hamda hududiy boshqarma va	2024-yil iyul	F. Berdiyev S. Axmedov

		bo'limlari a'zosi bo'lgan xodimlar soni va ularning ro'yxatini shakllantirish. 3. Tayyorlangan ma'lumotlarni Respublika idoralararo komissiyasiga taqdim qilish.		
9.	Xodimlar tomonidan 2024-yilda manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha to'ldirilgan yillik deklaratsiyalarni tahlil qilish hamda natijalarini Respublika idoralararo komissiyasiga taqdim qilish.	1. Vazirlik va uning tizimida xodimlar tomonidan manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha yillik deklaratsiyalar to'ldirilishini ta'minlash. 2. Manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha to'ldirilgan yillik deklaratsiyalarni tahlil qilish va tartibga solish choralari ko'rish. 3. Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ma'lumotlarni Respublika idoralararo komissiyasiga taqdim qilish.	2024-yil iyul	F. Berdiyev S. Axmedov
10.	Jismoniy va yuridik shaxslardan manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha kelib tushgan murojaatlarni tahlil qilish hamda natijalarini Respublika idoralararo komissiyasiga taqdim qilish.	1. Vazirlik va uning tizimida xodimlar tomonidan 2023-yil va 2024-yilning 1-yarim yilligi davomida jismoniy va yuridik shaxslardan manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha kelib tushgan murojaatlarni tahlil qilish. 2. Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ma'lumotlarni Respublika idoralararo komissiyasiga taqdim qilish.	2024-yil sentabr	A. Mingboyev F. Berdiyev
Amalga oshiriladigan targ'ibot tadbirlari va xodimlar malakasini oshirish				
11.	Ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyaning va mavjud manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi xabarnomaning belgilangan shaklini rasmiy veb-saytga va tegishli elektron tizimlarga joylashtirish.	1. Vazirlikning rasmiy veb-saytiga va tegishli elektron tizimlarga joylashtirish. 2. Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ma'lumotlarni Respublika idoralararo komissiyasiga taqdim qilish.	2024-yil sentabr	R. Umarova O. Eshchanov F. Berdiyev
12.	Vazirlik tizimi xodimlarining manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq qonunchilik hujjatlari bo'yicha bilim va ko'nikmalarini onlayn test	1. Vazirlik tizimi xodimlarining Adliya vazirligi tomonidan o'tkaziladigan manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq	2024-yil iyul- sentabr	S. Axmedov F. Berdiyev

	sinovlari orqali baholash hamda ularning malakasini oshirish bo'yicha tashkiliy choralarni belgilash.	qonunchilik hujjatlari bo'yicha bilim va ko'nikmalari bo'yicha onlayn testda to'liq ishtirokini ta'minlash. 2. Vazirlik hamda hududiy boshqarma va bo'limlar boshqaruv xodimlarining malakasini oshirishini to'liq ta'minlash.		
13.	Qonun ijrosini tashkil etish ishlarini muvofiqlashtirish bo'yicha Respublika idoralararo komissiyasi tomonidan tashkil etilgan ishchi guruhlarining so'roviga ko'ra tegishli ma'lumotlarni o'z vaqtida taqdim qilib borish ishlarini amalga oshirish.	Amaliy chora-tadbir	doimiy	F. Berdiyev